

## **Ilmiy faoliyat**

Gigiyena va atrof-muhit, Epidemiologiya kafedrasida asosiy shtatda 1 professor, 1 dotsent, 1 PhD, 1 tibbiyot fanlari nomzodi hamda qo'shimcha 1 tibbiyot fanlari nomzodi va 1 Avstriyadan professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradi.

2008-yilda kafedra mudiri V.K. Absattarova "Orolbo'yida dizenteriyaning epidemiologik xususiyatlari va uning oldini olish choralarini takomillashtirish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2013-yilda professor A.M. Madreymov "Orolbo'yida o'tkir diareya kasalliklarini kamaytirishning epidemiologik jihatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va 2013-yilda professor ilmiy unvoni berilgan.

2018-yilda kafedra dotsenti D.O.Otaxanova "Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining kasallanish darajasiga havo ifloslanishining ta'sirini gigiyenik baholash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2023 yilda K.K. Dauilbayeva "Janubiy Orolbo'yi stafilinidlarining (Coleoptera, Staphylinidae) ekologik va faunistik xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Joriy yilda 30 maqola (15 respublika, 14 xalqaro, 1 ScopusWeb of Science), 17 tezis (11 respublika, 6 xalqaro), 3 o'quv qo'llanma, 1 DGU nashr etildi, noyabr oyida kafedramizda simpozium bo'lib o'tdi va 2 o'qituvchi ma'ruza bilan qatnashdi, bundan tashqari, o'qituvchilarimiz boshqa konferensiyalarda ma'ruzalari bilan qatnashdi.

2025-yil 18-aprel kuni Gigiyena va atrof-muhit, epidemiologiya kafedrasini tomonidan Gigiyena fanidan Xalqaro talabalar olimpiadasi tashkil etildi. Tibbiyekologiya va O'zbekistonning turli tibbiy oliy o'quv yurtlari talabalari va Qozog'istondan talabalar ishtiroy etdi.